

# Yashil

## IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 5



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 528 sahifa.*

*E'lion qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosи, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Guinora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Uteyev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullo o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari .....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqlapog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtalariev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida .....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'liming raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export .....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari .....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari .....	54
Ibdullahayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'an qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari .....	68
Uralov Olimjon Muhammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil .....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar .....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili .....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanova, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xuriniso Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati .....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash .....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati .....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari..... <b>Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi</b>	122
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari..... <b>Davronbek Sharibjonovich Raximov</b>	127
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili..... <b>Aminov Farrux Farxadovich</b>	133
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari..... <b>G. J. Jumayeva</b>	138
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari.... <b>Mirsodiqov Abdulla Tursunallyevich</b>	141
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar .. <b>Nematova Shaxlo Egamberdiyevna</b>	146
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari..... <b>Xakimov Zohid Norbo'tayevich</b>	149
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish..... <b>Zoirov O'lmas Erkin o'g'li</b>	158
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash .. <b>Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna</b>	164
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана..... <b>Иноярова Камола Фуркатовна</b>	168
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni .. <b>X. X. Ikramov</b>	172
Korporativ boshqaruvi tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari .. <b>Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li</b>	176
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida)..... <b>Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov</b>	182
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franchizing rol .... <b>Rabimqulov Sherzod Murtozayevich</b>	189
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari .. <b>Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich</b>	193
Davlat sherkchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lif moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi..... <b>Boltaboev Murodbek Aybekovich</b>	198
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi .. <b>X. I. Boyev</b>	203
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi .. <b>Axmedova Dilrabo Kurbondurdy qizi</b>	207
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak..... <b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	216
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili..... <b>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</b>	220
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования..... <b>Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамирова Мафтуна Турсуналт кизи</b>	227
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность .. <b>Шермаматова Иорда Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли</b>	232
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности .. <b>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</b>	238
Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi .. <b>Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li</b>	243



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг ..... <b>Розоков Мухаммадазиз Мансурович</b>	248
Factoring Operations in Banks..... <b>Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna</b>	253
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish..... <b>Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich</b>	257
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati ..... <b>Oybek Elmuratov</b>	264
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish..... <b>Uzakova Umida Ruzievna</b>	268
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy .....	274
<b>Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari .....	278
<b>Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna</b>	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari .....	284
<b>Norqobilov Nusrat Norsaitovich</b>	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi .....	288
<b>Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna</b>	
Mahalliy budgetlar mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi .....	295
<b>S. Y. Ismoilova</b>	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil .....	300
<b>Qurbanova Firuza Solexovna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi .....	306
<b>AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich</b>	
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari .....	312
<b>Olimova Nodira Xamrakulovna</b>	
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish .....	324
<b>Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li</b>	
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvida faoliyat uzlusizligini baholash.....	331
<b>Tulovov Erkinjon To'lqin o'g'li</b>	
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий..... <b>Махкамова Надира Сайдмуратовна</b>	335
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili .....	340
<b>Otajonova Gulhayo Maqsud qizi</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish.....	345
<b>Xudoyorov Laziz Niyozevich, Ergashova Nargiza Boboxonovna</b>	
Mamlakatimzda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari .....	351
<b>Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b>	
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilingan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi .....	357
<b>Amonova Dilafro'z O'tkurovna</b>	
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish .....	362
<b>Axmedov Miraziz Alisherovich</b>	
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari .....	367
<b>Hamrokulov M. O.</b>	



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalari faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi.....	375
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati.....	379
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе .....	388
Шадиева Дилдора Хамидовна	
Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan o'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari .....	392
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
Tut parvonasi zararkunandasining biologik tarqalishi va zararini oldini olish choraları.....	402
Oybek Toshtemirovich Karimov	
Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kansitish .....	406
Iminova Nargizaxon Akramovna	
Ihsizlik nafaqalari tayinlash va xalqaro tajriba.....	412
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
Takroriy ekinlar urug'ini to'g'ridan-to'g'ri nol ishlov berish orqali ekadigan qurilmaga tushadigan yuklamaning nazariy tadqiqoti.....	418
Abdullayev Baxodirjon Valijon o'g'li	
Banklarida jinoi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining roli .....	422
Abdullayeva Dildora Qudratovna	
Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartari asosida tashkil etishning uslubiy jihatlari .....	425
Adxamov Samariddin	
Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....	430
Asqarova Mavluda Turabovna, Otajonova Charoxxon Polvonqli qizi	
Ilmiy-innovatsion iqtisodiyotda suv xo'jaligini rivojlantirish muammolari, yechimlar va natijalar: fundamental asosda.....	435
Bababjanov Abdirashid Musayevich	
Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro standartlari.....	441
Maxamadaliyeva Mahliyoxon Maxamadmurod qizi	
Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari .....	448
Masharipov Maxim Bekturdiyevich	
Tijorat banklarning moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatar va uning mohiyati .....	453
Rashidov Raximjon Iskandarovich, Abduraxmonov Anvar Akbar o'g'li	
Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirish omillari va hozirgi holatining tahlili .....	459
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Moliyaviy menejment tizimi samaradorligini oshirishda raqamlı marketing strategiyasidan foydalanish .....	466
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
O'zbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati va o'rni .....	473
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Ajibayeva Rauiya Maxsudovna	
Aholi daromadlarini oshirishda asalarichilikning o'rni .....	479
Xudayarova Zuxra Yuldashevna	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ .....	482
Бекназова Комилахон Миркамол қизи	
Tijorat banklari faoliyatida iqtisodiy risklar va ularni nazariy asoslari .....	490
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi.....	497
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	



Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана.....	503
Назарова Райно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна	
Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari.....	509
Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich	
Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане	513
Холдарова Фариза Тухтабаевна	
Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют.....	519
Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Исакандарович	

# MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



# BIZNES TUZILMALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MODELLARI VA USULLARI HAMDA INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYALARINING QIYOSIY TAVSIFI



**Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna**

PhD, Urganch davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Biznes tuzilma, diversifikatsiya, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, strategiyani boshqarish mexanizmi, strategiyani amalga oshirish mexanizmi.

**Abstract:** This article develops a comparative description of models and methods of diversification of business structures and innovative development strategies.

**Key words:** Business structure, diversification, organizational-economic mechanism, strategy management mechanism, strategy implementation mechanism.

**Аннотация:** В данной статье разработана сравнительная характеристика моделей и методов диверсификации бизнес-структур и стратегий инновационного развития.

**Ключевые слова:** Структура бизнеса, диверсификация, организационно-экономический механизм, механизм стратегического управления, механизм реализации стратегии.

## KIRISH

Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish usullari va modellari bo'yicha innovatsion rivojlanish strategiyalarini o'rghanish<sup>[1]</sup> biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish va biznes tuzilmalarini innovatsion rivojlantirish modellari hamda usullari bo'yicha ikki guruhga bo'lingan holda o'rganildi. Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modeli va usullarini taqdim etish shakliga ko'ra ular quyidagilarga bo'linadi: tizimlar, mexanizmlar, sxemalar, algoritmlar, matritsalar. Diversifikatsiyani mexanizm sifatida ko'rib chiqishda tadqiqotchilar uning barcha tarkibiy qismlarini aniqlash va tarkibiy qismlar o'tasidagi munosabatlarni o'rnatish vazifalarini hal qiladilar.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy tadqiqotlarda "tashkiliy-iqtisodiy mexanizm", "strategiyani boshqarish mexanizmi", "strategiyani amalga oshirish mexanizmi", "strategiyani shakkantirish mexanizmi", "strategiyani amalga oshirish mexanizmi", "variantlarni tanlash mexanizmi" kabi tushunchalardan foydalilanigan, ular turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi. E.F.Pereguda va O.M.Romashko va G.O.Peresadko diversifikatsiyani "tashkiliy-iqtisodiy mexanizm" sifatida ko'rib chiqdi va mexanizmni qurishda tizimli yondashuvdan foydalandi. E.F.Peregudoy<sup>[2]</sup> tartibga solish va bozor mexanizmiga ta'sir qilishning iqtisodiy dastaklarini o'z ichiga olgan iqtisodiy quyi tizim va faoliyatni huquqiy qo'llab-quvvatlovchi va kompaniya strategiyasini aniqlashga ta'sir qiluvchi tashkiliy-huquqiy quyi tizimni ta'kidladi.

O.M.Romashko maqsadlar to'plamini shakkantirish quyi tizimi, strategiyani asoslash va tanlash quyi tizimi, faoliyatni diversifikatsiya qilishni boshqarishni ta'minlash quyi tizimi, iqtisodiy va tashkiliy quyi tizim, faoliyat samaradorligini baholash quyi tizimlarni aniqladi<sup>[3]</sup>. Biznesni diversifikatsiya qilish strategiyalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi G.O.Peresadko bir-biriga bog'langan loyihani diversifikatsiya qilish strategi-



yalarining muvozanati va samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan tashkilot, axborot ta'minoti, tahlil va rejalashtirish, motivatsiya va nazorat kabi beshta quyi tizimni birlashtiradi [4].

A.M.Balanovich bozor tendensiyalari asosida sanoat korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish mexanizmini yaratishda, shuningdek, maqsad, obyektlar, subyektlar, prinsiplar, funksiyalar, yordam, usullar, vositalar, bozor tendensiyalari va ketma-ket bosqichlarni ajratib ko'ssatadigan tizimli yondashuvdan foydalangan [5]. Uning xususiyati shundaki, rivojlanish strategiyasi bozor tendensiyalarini hisobga oлган holda shakllantiriladi, bu ma'lum bir tarmoq bilan shug'ullanadigan korxonani isloh qilish uchun shart-sharoitlarni aniqlash imkonini beradi.

Yu.I.Efimichev, O.V.Udalov va T.V.Trofymova resurs yondashuvidan foydalangan holda diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish mexanizmini yaratdi. Bu mexanizm bir necha bosqichlarni ketma-ket amalga oshirishni ifodalaydi: korxonaning resurslarni tejash salohiyatini o'hash, korxonaning resurslarni tejash salohiyatini o'hash, diversifikatsiya variantlarini baholash asosida korxona faoliyati samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni aniqlash, korxonaning resurslarni tejash salohiyatini ro'yobga chiqarish asosida tegishli diversifikatsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash, diversifikatsiyaga asoslangan resurslarni tejaydigan loyihalarni amalga oshirish.

C.M.Shea va boshqalar korxonada tovar oqimlarini diversifikatsiya qilish strategiyasini amalga oshirish mexanizmining bosqichlari ketma-ketligini jarayonli yondashuv orqali amalga oshirdi [6], ya'ni korxonaning umumiyl samaradorligi, korxona imkoniyatlarini baholash jarayoni, tovar oqimlarini diversifikatsiya obyektlari, maqsadlari va usullarini aniqlash jarayoni, diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish jarayoni, diversifikatsiyani nazorat qilish va tartibga solish jarayoni va umuman olganda, korxona unumdorligini oshirishga qaratilgan jarayonlarga e'tibor qaratgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifini tadqiq qilish borasida kuzatish, tahlil (qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, nazariy tahlil, tizimli tahlil), sintez, abstraksiya, induksiya, deduksiya, analogiya, xronologik, monografik usullardan samarali foydalanalndi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, ishlab chiqarish va kapitalni diversifikatsiya qilish variantlarini aniqlash mexanizmi quyidagi jarayonlar ketma-ketligidan iborat:

- 1) kiritilgan ma'lumotlarni shakllantirish;
- 2) korxonaning boshlang'ich moliyaviy holatini va muayyan mahsulot bozoridagi ulushini aniqlash;
- 3) korxona uchun mos keladigan diversifikatsiya yo'nalishlari va usullarini aniqlash;
- 4) kapital xarajatlar hajmiga qarab diversifikatsiya qilishning mumkin bo'lgan variantlarini shakllantirish;
- 5) korxona uchun eng samarali diversifikatsiya variantlarini aniqlash;
- 6) dinamik dasturlashning iqtisodiy-matematik modelidan foydalangan holda turli xil diversifikatsiya variantlari o'rtaida kapital qo'yilmalarni taqsimlash;
- 7) har bir variantning oldingi bosqichida aniqlangan kapitalni ushbu variantga mos keladigan alohida diversifikatsiya yo'nalishlari o'rtaida taqsimlash;
- 8) korxonada ishlab chiqarish va kapitalni diversifikatsiya qilishni joriy etishdan korxona uchun iqtisodiy oqibatlarni hisoblash.

Maxsus maqsadli xo'jalik yurituvchi subyektlarni diversifikatsiya qilish yo'nalishlarini tanlash mexanizmi esa quyidagi jarayonlar ketma-ketligidan iborat:

- 1) diversifikatsiya strategiyasini keyingi tanlashga ta'sir qiluvchi korxona xususiyatlarini aniqlash va potential mumkin bo'lgan yo'nalishlarni guruhlash;
- 2) birlamchi ma'lumotlar to'plamini shakllantirish va ular asosida korxonaning moliyaviy holati hamda bozor ulushi ko'satkichlari aniqlash;
- 3) diversifikatsiya yo'nalishlarini aniqlash va uning matritsasini qurish;
- 4) eng maqsadga muvofiq yo'nalishlarni belgilash va matematik modeldan foydalangan holda diversifikatsiyaning alohida yo'nalishlari o'rtaida kapitalni taqsimlash;
- 6) diversifikatsiya tadbirlarini amalga oshirishning iqtisodiy samarasini hisoblash.

Bundan tashqari, sanoat korxonalarini ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish mexanizmiga yangi mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan jarayonlar, usullar, tashkiliy ta'minot va axborot oqimlarining tartibi, mazmuni va o'zaro bog'liqligi belgilanadigan integratsiya tizimi sifatida qaraladi. Mexanizmning harakati logistika va sotish bo'limi mahsulotlarga talabning keskin kamayishi sabablari hamda tahdidlarini, bozor hajmi va bozor



ulushi dinamikasi parametrlarini aniqlash, talabni proqnoz qilish uchun ma'lumotlar manbalarini shakllantirishdan boshlanadi.

Korxonaning ishlab chiqarishni diversifikasiya qilishga tayyorligini tahlil qilish va uni axborot bilan ta'minlash jarayoni korxonaning iqtisodiy bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Kadrlar va texnik tayyorgarlik bo'limi xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish imkoniyatlari haqida ma'lumot beradi. Dizayn bo'limi yangi mahsulotlarni o'zlashtirish loyihalari bilan ishlab chiqarishni diversifikasiya qilishga tayyorgarlikni rejalashtirish jarayonini ta'minlaydi, shuningdek, kerak bo'lganda, loyiha hujjatlarini moslashtiradi va texnologlarga o'zgarishlar to'g'risida xabar beradi. Texnologik bo'lim yangi texnika va texnologiyani joriy etish rejasini taqdim etadi, unda ilg'or jarayonlar va ishlab chiqarishda eng yangi materiallarni o'zlashtirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Moliya bo'limi ishlab chiqarishni diversifikasiya qilishning iqtisodiy samaradorligini baholaydi, shuningdek, ishlab chiqarishga yangi mahsulotlarni kiritish xarajatlarining smeta va moliyaviy hisob-kitoblarini nazorat qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, diversifikasiyalashni matematik modellashtirish jarayonni ilmiyligini ta'minlash bilan bir qatorda korxona rivojlanish istiqbolari uchun asoslangan qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Shu ma'noda, A.B.Guryanova, A.V. Serikov va V.B Gusevlar matematik modellashtirish usullari yordamida ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish modellaridan foydalanishgan.

Ishlab chiqarishni diversifikasiya qilishni optimallashtirishning matematik modelida A.B.Guryanov va A.V.Serikov investorlar portfeli nazariyasini amalda tattiq etdilar va ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish zarurligini ko'rsatuvchi mezонни taklif qildilar va korxona biznes-jarayonlari samaradorligining o'zgarish tezligining ushbu biznes jarayonlarining xarajatlari o'zgarish tezligiga nisbatida hisoblashni taklif etdilar<sup>[7]</sup>.

Shuningdek, ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish modelida qo'llaniladigan matematik modellashtirish usullarida V.B.Gusev resurslarning kamayishi ta'sirini, shuningdek, atrof-muhitning salbiy ta'sirini hisobga oladi va avtonom boshqaruva mexanizmlarini ishlab chiqadi<sup>[8]</sup>. Bu esa o'z navbatida, diversifikasiya samaradorligini qabul qilingan oqilona taxminlar doirasida iqtisodiy tizimning kutilayotgan holatlarining ehtimollik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda baholash, bifurkatsiya va barqaror o'sish sharoitlarini o'rganish imkonini beradi.

Algoritmlar yordamida ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish bo'yicha strategik masalalarini hal qilish quydagi bloklar bo'yicha ko'rib chiqiladi:

- ishbilarmonlik muhitini monitoring qilish, korxonada ishlab chiqariladigan ishlab chiqarish turlari bo'yicha bozor tendensiyalarini baholash va ularni rivojlantirish xavfini baholash;
- ishlab chiqarishning mayjud turlarini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash; korxonaning joriy ishlab chiqarish turlariga nisbatan salohiyatini rivojlantirish;
- tavakkalchilikni baholash va ishlab chiqarishni turli yo'llar bilan diversifikasiya qilish o'z navbatida: mahsulot turlarini kengaytirish, mahsulot turlarini optimallashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali; iqtisodiy faoliyatning yangi turlarini joriy etish orqali; ishlab chiqarish turlarini yangilash imkoniyatlarini baholash va xo'jalik faoliyatining yangi turlarini joriy qilish uchun kompaniyaning salohiyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Diversifikasiyalashni analitik, algoritmik modellaridan tashqari grafoanalitik model ham mavjud bo'lib, u orqali marketingning xalqaro diversifikasiyasini amalga oshirish masalalarini hal qiliish mumkin. Ushbu modelda quydagi bloklarni ta'kidlash o'rnli, xususan:

- korxonalarning xalqaro muhitini marketing tadqiqotlari: korxonaning xalqaro bozorlarga chiqishi uchun yangi imkoniyatlar yaratish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash;
- xalqaro diversifikasiya sharoitida korxonalarning marketing salohiyatini baholash;
- yangi takliflar yaratish va tashqi bozorlarda yangi faoliyatni optimallashtirish orqali tavakkalchilikni baholash va ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish;
- korxonaning diversifikasiya salohiyatini baholash; kompaniya faoliyati uchun yangi xalqaro bozorlarning marketing jozibadorligini yaqinlashishini baholash;
- xalqaro diversifikasiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish. Biznesning eng istiqbolli strategik yo'nalishlarini tanlash bo'yicha jarayonlar ketma-ketligi sifatida tashkilot faoliyatini diversifikasiya qilish strategiyasini ishlab chiqishning konseptual modeli M.A.Gorbunova va A.V.Medvedeva tomonidan taqdim etilgan. Unga ko'ra:
- tashqi va ichki muhit monitoringi, boshqaruvning potensial strategik yo'nalishlarini, strategik alternativlarni aniqlash, boshqaruvning istiqbolli strategik yo'nalishlarini tanlash, boshqaruvning har bir strategik sohasini baholash, innovatsion va investitsiya loyihalari majmuasini shakllantirish;
- innovatsion va investitsiya loyihalari samaradorligini baholash; ishlab chiqilgan vositalar to'plamidan foydalangan holda optimal innovatsion va investitsiya loyihasini tanlash;
- diversifikasiya strategiyasining tanlangan variantini amalga oshirish va diversifikasiya strategiyasining amalga oshirilishini monitoring qilish hamda baholash. Obyekt yoki predmetli konseptual modelda ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin, xususan:



- xo'jalik faoliyatining yangi turlarini joriy etish (bo'limgan, konglomerat);
- boshqa innovatsion transformatsiyalar (tashkiliy, funksional, resurs va boshqalar);
- xo'jalik faoliyatining hozirgi turlarining rivojlanishi (bog'langan, konsentrik). Albatta, har bir korxonaning o'ziga xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, diversifikatsiyalash bo'yicha keltirilgan modellar aynan ular uchun asos sifatida qabul qilinishi kerak. Bu borada, sanoat korxonalarini ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish modelida M.H.Storkholm va boshqalar ishbilarmonlik muhiti, viloyat sanoat korxonalarini diversifikatsiya qilishni tartibga solishning diversifikatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmining ishlashini ta'minlash bo'yicha iqtisodiy mexanizmini ko'rib chiqdilar.

O.R.Mazurenok diversifikatsiya modelida to'rtta asosiy korxona aktivlari tarkibi, diversifikatsiya sektori, geografiya, kompaniya haqidagi bilimlar (moliyaviy holat, ishlab chiqarish, kadrlar, xalqaro aloqalar) obyekti aniqlaydi [9]. Olimlar biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish uchun turli vositalarni ham taklif qilishdi. Grafik-analitik shaklda V.I.Talimin quyidagi bloklarni o'z ichiga olgan diversifikatsiya strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilish algoritmini taqdim etadi:

- umumiy strategiyaning missiyasi va maqsadlarini hamda korxonaning strategik o'sish yo'nalishlarini aniqlash;
- diversifikatsiya strategiyasi maqsadlarini korxonaning umumiy strategiyasi maqsadlari bilan solishtirish;
- maqsad va vazifalarni moslashtirish hamda diversifikatsiya strategiyasining muqobil variantlarini aniqlash;
- diversifikatsiya strategiyasi variantlarini iqtisodiy asoslash va ularni amalga oshirishdagi risklarni baholash;
- diversifikatsiya strategiyasining variantini tanlash va uni amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilish;
- diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish va natijalarni baholash.

Kognitiv diversifikatsiyaga asoslangan biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish mexanizmi, modeli va vositalarining qo'llash imkoniyatiga ko'ra qiyosiy tavsiflarini keltirish lozim.

Jadval yoki diagramma. Ushbu maqolada dastlab diversifikatsiya qilish modelini tavsifi taklif etiladi (1-jadval).

**1-jadval:** Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellarining qiyosiy tavsiflari<sup>1</sup>

Model nomi	Yondashuv	Qo'llash imkoniyati		
		Diversifikatsiya bosqichlari	Kognitiv omil	Vektorlik
Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishni optimallashtirishning matematik modeli	modellashtirilgan	+	+	-
Viloyat sanoat korxonalarini ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish modeli	obyektiv	+	-	-
Konchilik mintaqasi uchun ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish modeli	modellashtirilgan	+	-	-
Ishlab chiqarish korxonasini diversifikatsiya qilish modeli	obyekt	+	-	-
Tashkilot faoliyatini diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqishning konseptual modeli	protsessual	+	-	-
Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning konseptual modeli	obyektiv	+	-	-
Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish jarayonining grafik-analitik modeli	Grafo-analitik	+	+	-
Xalqaro diversifikatsiyani amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorini qabul qilish jarayonining grafik-analitik modeli	Grafo-analitik	+	+	-

1 Muallif ishlanmasi.



Matematik modellashtirish usullari yordamida innovatsion qabul qilish modeli va korxonaning innovatsion rivojanishiga tayyorlik korxonaning innovatsion salohiyatining o'sishini belgilovchi innovatsiyalarni qabul qilish darajasi va korxonaning innovatsion rivojanishga tayyorlik darajasini hisoblashga asoslanadi. Korxonaning innovatsion rivojanishi modeli xotira effektiga ega dinamik tizim sifatida ishlab chiqilgan.

Endi biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish mexanizmlarining qiyosiy tavsiflarini keltiramiz (2-jadval).

**2-jadval:** Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish mexanizmlarining qiyosiy tavsiflari<sup>2</sup>

Mexanizm nomi	Yondashuv	Qo'llash imkoniyati		
		Diversifikatsiya bosqichlari	Kognitiv omil	Vektorlik
Ishlab chiqarish va kapitalni diversifikatsiya qilish variantlarini aniqlash mexanizmi	protsessual	+	+	+
Tashkiliy va iqtisodiy diversifikatsiya strategiyalarini boshqarish mexanizmi	tizimli	+	-	+
Resurs yondashuviga asoslangan diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish mexanizmi	resursli	+	-	-
Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	tizimli	+	-	-
Sanoat korxonalari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish mexanizmi	integrativ	+	-	-
Gaz transporti korxonalari faoliyatini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	tizimli	+	-	-
Korxonada mahsulot oqimini diversifikatsiya qilish strategiyasini amalga oshirish mexanizmi	protsessual	+	-	-
Bozor tendensiyalari asosida sanoat korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish mexanizmi	tizimli	+	-	-
Maxsus maqsadli xo'jalik yurituvchi subyektlarni diversifikatsiya qilish yo'nalishlarini tanlash mexanizmi	protsessual	+	-	+

Korxonaning innovatsion faoliyatiga asoslangan barqaror rivojanish mexanizmi o'rnatilgan quyi tizimlarni o'z ichiga olgan murakkab tizim bilan ifodalanadi:

- funksional ishlab chiqarish (boshqaruv obyektlari, korxona bo'linmalari);
- ta'minlash (resurs, kadrlar, texnologik, moliyaviy, axborot, uslubiy, innovatsion, investitsion, huquqiy, ijtimoiy va psixologik);
- boshqaruv (boshqaruv subyektlari, boshqaruvchilar, menejerlar), boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi va quyi tizimlarning o'zaro ta'siri mexanizmi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ta'kidlashga imkon berdi, mavjud modellar kognitiv diversifikatsiyaga asoslangan biznes tuzilmalarining innovatsion rivojanishini diversifikatsiya qilishga muallifning tizimli yondashuvini to'liq aks ettirmaydi: modellar to'liq yoki diversifikatsiya jarayonining alohida bosqichlariga ularning ayrim elementlari qisman mos keladi.

Tadqiqotda korxonaning innovatsion rivojanishining taklif etilayotgan axborot-mantiqiy modeli innovatsion salohiyat holati va innovatsion iqlimga qarab to'rtta innovatsion o'sish strategiyasi, texnik yutuq strategiyasi, tashkiliy yutuq strategiyasi, innovatsion yutuq strategiyasiga asoslanadi. Ushbu model innovatsion rivojanish darjasining tashkilot joylashgan hayot siklining bosqichidan qat'i nazar, korxonaning innovatsion faolligi darjasiga bog'liqligini ifodalaydi va korxonaning bir strategiyadan boshqa strategiyaga o'tishi "inqiroz nuqtalari"ni bartaraf etish orqali amalga oshiriladi.

<sup>2</sup> Muallif ishlansmasi.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

- Поляков С.Г. Модель инновационного развития предприятия/ С.Г. Поляков, И.М. Степнов // Инновации. – 2003. – № 2-3 (59-60). – С. 36-38.; Касс М.Е. Формирование стратегии инновационного развития предприятия на основе управления нематериальными активами: монография / М.Е. Касс. – Н. Новгород : ННГАСУ, 2011. – 159 с.
- Pereguda E.F. Theoretical aspects of diversification agricultural activity of agro-industrial complex enterprises / E.F. Overheard // Economy of agricultural industry. - 2013. - No. 10. - P. 113-116.
- Ромашко Е.М. Формирование организационно-экономического механизма диверсификации деятельности газотранспортных предприятий: автореф. дис. На получение наук. степени канд. экон. наук: спец. 08.00.04 "Экономика и управление предприятиями (по видам экономической деятельности)" / О.М. Ромашко. – Ивано-Франковск, 2017. – 20 с.
- Пересадько Г.А. Управление стратегиями диверсификации промышленных предприятий: дис. на соискание ученой степени канд. экон. наук : спец. 08.00.04 "Экономика и управление предприятиями" / Г.А. Пересадка. – Сумы: СумГУ, 2008. – 254 с.
- Баланович А.М. Обоснование стратегий развития промышленного предприятия на основе рыночных тенденций: дис. на соискание научного степени канд. экон. наук: спец. 08.00.04 "Экономика и управление предприятиями"/А.М. Баланович – Харьков – 2018. – 343 с.
- Shea CM et al. Organizational readiness for implementation changes: psychometric evaluation of a new measure. (Also known as: ORIC) Copyright: Creative Commons license. – 2014.
- Гурьянов А.Б. Математическая модель оптимизации диверсификации производства / А.Б. Гурьянов, А.В. Сериков // Коммунальное хозяйство городов. – 2005. – №61 – С.144-151.
- Гусев В.Б. Модель диверсификации производства для региона интенсивного освоения недр / В.Б. Гусев // Сиб. журн. индустр. матем., 15:3. – 2012. – С. 24-36.
- Мазуренок О.Р. Особливості диверсифікації машинобудівних підприємств : автореферат дисертації на здобуття наукового ступеня кандидата економічних наук / О.Р. Мазуренок // Тернопільський національний технічний університет імені Івана Пулюя. – Тернопіль, 2013. – 28 с.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



#### Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni O'zbekiston Respublikasi Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Olyi attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.